

PROFILAKTIKA INSPEKTORINING MUAYYAN YASHASH JOYIGA EGA BO'LMAGAN SHAXSLAR BILAN ISHLASH FAOLIYATINI TUBDAN TAKOMILLASHTIRISH

*IIV Akdemiyasi 309-guruh kursanti
Nurahmadov Shukurulla Shavkat o`g`li*

Annotatsiya: Boshpana izlayotgan shaxs – bu xalqaro himoyani izlayotgan shaxslar uchun umumiy atama bo'lib hisoblanadi. Ayrim mamlakatlarda bu huquqiy atama qochoq maqomini taqdim etish to'g'risida murojaat qilgan, lekin o'z murojaati bo'yicha hali uzil-kesil qaror olmagan shaxs ma'nosini anglatadi. Pirovard natijada boshpana izlayotgan barcha shaxslar ham qochoq deb tan olinmaydi, ammo shunga qaramasdan qochoq shaxs uning murojaatini adolatli ko'rib chiqish tartibi tugallanmagunga qadar kelib chiqish mamlakatiga qaytarilmaydigan shaxsdir..

Kalit so'zlar: huquqbuzarlik, viktimologik profilaktika, huquqshunos, chora-tadbir, prinsip, subyekt tavsifi, odam savdosi, ekstremizm, terrorizm, ommaviy madaniyat.

Abstract: Asylum seeker is a general term for persons seeking international protection. In some countries, this legal term refers to a person who has applied for refugee status but has not yet received a final decision on their application. Ultimately, not all asylum seekers are recognized as refugees, but a refugee is a person who cannot be returned to their country of origin until a fair hearing has been completed.

Key words: offense, victimological prevention, jurist, measure, principle, subject description, human trafficking, extremism, terrorism, popular culture.

Аннотация: Литсо, ищущее убежища, – это общий термин для лиц, ищущих международной защиты. В некоторых странах этот юридический термин относится к человеку, который подал заявление о предоставлении статуса беженца, но еще не получил окончательного решения по своему заявлению. В конечном счете, не все лица, ищущие убежища, признаются беженцами, но беженец – это человек, которого нельзя вернуть в страну происхождения до завершения справедливого слушания.

Ключевые слова: правонарушение, виктимологическая профилактика, юрист, мера, принцип, характеристика субъекта, торговля людьми, экстремизм, терроризм, массовая культура.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar hozirgi kunga kelib yangi bosqichga ko'tarildi, davlat ahamiyatiga ega masalalarni hal etish, yangi jamiyat hayotining barcha sohalarini liberallashtirish sari yo'l tutmoqda.

Jinoyatchilik bilan bog'liq bo'lgan turli sabab va sharoitlar, shuningdek, ijtimoiy iqtisodiy muammolar oqibatida paydo bo'ladigan salbiy ijtimoiy-illatlar, daydilik va tilamchilik kabi boshqa turdagi holatlarni oldini olish asosiy vazifalardan biri bo'lishi lozim. Shu jumladan fuqarolarning ijtimoiy turmush tarzini yaxshilash, ular o'rtasidagi ishsizlikni bartaraf etish, mavjud muammolarni bartaraf etishda ko'maklashish ham ushbu jamiyatdagi mavjud salbiy ijtimoiy illatlarni bartaraf etishning asosiy usullaridan biri sifatida qaraladi. Fuqarolarni ijtimoiy tomondan muhofaza qilish borasida mamlakatimizda ko'zga ko'rinarli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jinoyatchilikka qarshi kurash va uning oldini olish borasida ichki ishlar organlarining faoliyati zamon talablariga javob beradigan darajada tubdan isloh qilindi. Islohotlar jarayonida huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini takomillashtirish va ularning moddiy-texnik ta'minotini yanada yaxshilash, faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bu chora-tadbirlarning barchasi qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgand

Jamoat tartibi va xavfsizligiga, fuqarolarning osoyishtaligiga va tinchligiga rahna soluvchi holatlar, voqea va hodisalar borki ularni bartaraf etish huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday salbiy illatlardan biri bu jamiyatda muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarning paydo bo'lishidir. Mazkur salbiy illatlarning sabab va shart sharoitlarini aniqlash, ularni bartaraf etish choralari ko'rish, fuqarolarning ma'naviyatini yuksaltirish, ushbu toifadagi shaxslarni to'g'ri turmush tarziga qaytarish choralari ko'rish profilaktika inspektorining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan izchil siyosat shu yurtda yashovchi barcha fuqarolarning huquqiy manfaatlarini va ularning tinch-osoyshta hayotini ta'minlashga qaratilgandir. Shu bois hozirda davlat tomonidan qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar birinchi o'rinda inson manfaatlarini ko'zlab ishlab chiqilmoqda va qabul qilinmoqda. Jamiyat rivoji bilan birga sodir etiladigan jinoyatlarning turli ko'rinishlari va turlari ham ko'payib bormoqda. Jumladan, bugungi kunda diniy ekstremizm va terrorizm, odamlarni yollash jinoyatlari va boshqalar. Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida aholining ko'pchilik qismi ishchi o'rinlariga bo'lgan raqobatga dosh bera olmasligi oqibatida ishsizlar soninig oshishiga olib keladi, albatta bu bozor iqtisodiyotining qonuni xisoblanadi, shu munosabat bilan bugungi kunda ishsizlikning oldini olish, tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ishchi o'rinlarini yaratish borasida juda ko'plab tashkiliy chora-tadbirlar olib borilmoqda. Bu esa ichki ishlar organlaridan jamiyatda huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, huquqbuzarliklarni sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarni aniqlash va ular bilan tegishli profilaktik ishlarni amalga oshirib borishni talab qiladi. Profilaktika inspektorlari ushbu toifadagi shaxslarni

aniqlashda, birinchi navbatda, jamoat birlashmalari va fuqarolardan kelib tushadigan axborotlarga tayanadi, ularning ushbu mazmundagi ariza va xabarlarini obyektiv o'rganib chiqish, ular asosida zaruriy chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirishlari hamda bu holatning asl sabab- sharoitlarini o'rganishlari maqsadga muvofiqdir.

Profilaktika inspektorlari tomonidan muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarni aniqlash jarayonida keng jamoatchilikdan kelib tushadigan axborotlarning ahamiyati yuqori. Ko'p hollarda ushbu toifadagi shaxslar ko'p qavatli uylarning yerto'lasida, cherdak va shunga o'xshash tashlandiq joylarda yashashini inobatga olsak, bu aholining xavfsizligiga tahdid soladi. Ushbu toifadagi shaxslarning tirikchilik qilish maqsadida o'g'irlik va boshqa turdagi jinoyatlarning sodir etishi yoxud sovuq tushgan paytlarda o'lib qolish holatlari ichki ishlar idoralari xodimlari tomonidan jinoyatni ochishda yoki o'lgan fuqaroning shaxsni aniqlashda qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Shulardan kelib chiqib, profilaktika inspektorlarining faoliyatini quyidagi yo'nalishlarda tashkil etish maqsadga muvofiqdir:

- muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslar yurgan joylarni borib tekshirish;
- muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslar yurishi mumkin bo'lgan hududdagi joylarni muntazam ravishda nazoratga olish;
- muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarning o'z vaqtida shaxsini aniqlash choralarini ko'rish;
- muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarning jinoyatga aloqadorligini yoki bedarak yo'qolgan shaxs bo'lishini aniqlash;
- aholi o'rtasida ushbu illatning salbiy oqibatlarining oldini olish borasidagi targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish;
- jamiyatda muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarning paydo bo'lishiga olib keluvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni bartaraf etish borasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan rejali tadbirlarni amalga oshirish;
- muqaddam sudlangan shaxslarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatilishini o'z vaqtida ta'minlash va bu borada hokimliklar huzuridagi maxsus komissiyalar bilan hamkorlikni kuchaytirish;
- muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslar ushlanib ularning shaxsini aniqlash imkoni bo'lmaganda Muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarni reabilitatsiya qilish markazlariga joylashtirish choralarini ko'rish.

Reabilitatsiya markazlarida muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarni saqlash bo'yicha reabilitatsiya markazlarining ichki rejimiga muvofiq quyidagi maxsus shart-sharoitlar ta'minlanadi:

- reabilitatsiya markazlarida saqlanayotgan shaxslarning xavfsizligini ta'minlash va ularni tashqi salbiy ta'sirlardan himoya qilish;

- rehabilitatsiya markazlari hududiga begona shaxslarning erkin kirishini hamda bu yerda saqlanayotgan shaxslarning markaz hududidan erkin chiqishini cheklash;

- rehabilitatsiya markazlarida saqlanayotgan shaxslarni doimiy va uzluksiz nazorat qilish, shaxsiy ko'rikdan o'tkazish, ularning buyumlari, olayotgan va yuborayotgan pochta jo'natmalari hamda yo'qlovlarini ko'zdan kechirish.

Muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxsni rehabilitatsiya markaziga joylashtirish to'g'risidagi ishlar O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy ishlarni yuritish to'g'risidagi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi talablariga asosan ma'muriy sudlar tomonidan yuritiladi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, profilaktika inspektorining eng asosiy vazifasi muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarni shakllanishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash va ularni bartaraf etishdir.

Fuqarolarda quyidagi xususiyatlar muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxsga aylanishiga olib kelishi mumkin:

- 1) boqimandalik;
- 2) ijtimoiy foydali mehnat qilishga istagining yo'qligi;
- 3) boshqalarning hisobiga yashashni hoxlashi;
- 4) ma'naviy tarbiyasidagi kamchiliklar;
- 5) surunkali ichkimlikbozlik va giyohvanlikka ruju qo'yishi;
- 6) o'z huquqlarini bilmasligi;
- 7) o'ziga tegishli mol-mulkka e'tiborsizligi va natijada yaqin qarindoshlari tomonidan unga tegishli bo'lgan mol mulklarini o'zlashtirib olinishi, uy-joylarini sotib yuborilishi, o'zlashtirilishi va boshqalar.

Qo'yidagi kamchiliklar muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan tofadagi shaxslarning jamiyatda shakllanishiga olib keladi:

- boshqaruv sohasidagi kamchiliklar;
- fuqarolarning ma'naviy-siyosiy, axloqiy va huquqiy tarbiyasidagi kamchiliklar;
- mehnatga bog'liq munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish yo'lidagi kamchiliklar;
- ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi kamchiliklar;
- huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlari tomonidan profilaktik choralarni amalga oshirishdagi kamchiliklar.

Tekinxo'rlik bu mehnat qilish qobiliyatiga ega fuqarolarning ijtimoiy jihatdan foydali bo'lgan mehnatdan bo'yin tortishidir. Ushbu toifadagi shaxslarning aksariyati giyohvandlik va surunkali ichkilikbozlik kasalligiga muhtalo bo'lganlar tashkil etib, bu yo'nalishdagi ishlarni tashkil etishda giyohvandlik yoki surunkali ichkilikbozlikning profilaktikasini amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan bir qatorda jamiyat a'zolarining ushbu toifadagi shaxslarga nisbatan nafrat bilan qarash, ularni odamlar orasiga qo'shmaslik oqibati ularda yanada jamiyat va boshqalardan uzoqlashishiga olib keladi, shulardan kelib chiqib, ularga yaqindan yordam berish, to'g'ri turmush tarzini tanlashga ko'maklashish lozim bo'ladi.

Aksariyat hollarda ushbu toifadagi shaxslar oila a'zolari, yaqinlarining unga nisbatan amalga oshirgan nohaqliklari natijasida shu yo'lga kiradilar, ya'ni ularning hayotdan ko'ngli soviydi, insonga bo'lgan ishonchi so'nadi, hayotning qizig'i qolmaydi. Muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarning soni ortib borishining sabab-sharoitlarini aniqlash va ularni tahlil etgan holda bartaraf etish choralarini ko'rish maqsadga muvofiqdir.

Daydilik va tilamchilikning mavjudligi jamiyat a'zolariga quyidagi salbiy ta'sirlar ko'rsatadi:

- fuqarolar, ayniqsa voyaga yetmaganlarning ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishi;
- shaxsning o'zligini yo'qotishiga olib kelishi;
- o'g'irlik, bosqinchilik, talonchilik jinoyatlarining sodir etilishi;
- yuqumli kasalliklar tarqalishi;
- jamiyatga zid qarashlarning paydo bo'lishi;
- xorijiy davlatlardan kelgan chet el fuqarolariga shu mamlakatga bo'lgan qarashlarning yomonlashuvi va boshqalar.

Daydilar quyidagi psixologik xususiyatlarga ega:

- yuzida ko'p ichkilik ichishning asorati qolishi, yuzida shish bo'lishi va ajinlarning ko'pligi;
- soch va soqolning o'sib ketishi;
- eskirgan, yirtiq, iflos kiyimlarda yurish;
- hamma narsalarini xaltada yoki sumkada olib yurishi;
- yuz va ko'zlarida befarqlik, g'amginlik mavjudligi, hamma narsani aroq uchun qurbon qilishga tayyorlik;
- tevarak atrofga, hatto o'zining taqdiriga ham befarqlik.

Tilamchilar quyidagi psixologik xususiyatlarga ega:

- yomon kiyinib o'zlarini kambag'al va bechora sifatida ko'rsatishadi (odamlarning rahmdilligini uyg'otish maqsadida);
- ko'p hollarda mahorat bilan o'zini kasal holatga solishadi;
- jismoniy va ruhiy kamchiliklarini ko'z-ko'z qilishadi;
- sharoitga moslashish uchun har-xil xatti-harakatlar qilishadi va turli xildagi odamlarning psixologiyasini yaxshi bilishadi va muloqotga tez kirishadi.

Ta'kidlash joizki, profilaktika inspektorining asosiy vazifalari bu borada bunday shaxslarni muntazam ravishda nazorat qilish, ularga doimiy ravishda ijobiy ta'sir ko'rsatish hamda muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarning shaxsini

aniqlagan holda kerakli profilaktik choralarni amalga oshirish jamiyatdagi turli salbiy ijtimoiy illatlar sodir etilishining oldini olishga keng imkoniyatlar yaratadi. Bundan tashqari bu kabi salbiy illatlarning sabab va sharoitlarini aniqlash hamda bartaraf etish choralarni ko'rish, surunkali ichkilikboz va giyohvandlikka muhtalo bo'lgan fuqarolarni aniqlash, ular bilan tarbiyaviy- profilaktik ishlarni tashkil etish, oilaviy ahvolini, yaqin qarindoshlarining munosabatini o'rganish, oilalardagi ichki muhitni tahlil etish, mavjud muammolarni bartaraf etishda fuqarolarga yaqindan yordam berish, aholning huquqiy va ma'naviy tarbiyasini yaxshilashga qaratilgan profilaktik tadbirlarni kuchaytirish, ishsizlik bartaraf etish borasidagi ishlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, profilaktika inspektorlari ushbu toifadagi shaxslarni aniqlashda, birinchi navbatda, jamoat birlashmalari va fuqarolardan kelib tushadigan axborotlarga tayanadi, ularning ushbu mazmundagi ariza va xabarlarini obyektiv o'rganib chiqish, ular asosida zaruriy chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirishlari hamda bu holatning asl sabab-sharoitlarini o'rganishlari maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1) Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir / O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 29 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. – 2021. – 8 dek.;

2) Mirziyoyev Sh.M. Tartib-intizom va mas'uliyatni kuchaytirish, jinoyatchilikning oldini olish muhitini mustahkamlash – huquqbuzarlik profilaktikasi samaradorligining asosiy omilidir;

3) Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”// Toshkent – 2021.

4) Mirziyoyev Sh.M. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi // Xalq so'zi. – 2022. – 8 fev.

5) Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini qo'llab- quvvatlash, mahalla tizimini rivojlantirish va jamiyatda “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyilini joriy etishning 2020 — 2024 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida O'z.Res.Pr. Farmoni

6) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 yanvardagi «Fuqarolar va jamoat tashkilotlarini huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi faol ishtiroki uchun rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi 15-son qarori;